

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR
VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI

**MATERIALLAR
TO'PLAMI
XIV**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

XIV

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2023**

UO‘K 81'373

81.2-3

G 13

Gadoeva, M.I.

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari [Matn] : materiallar to‘plami, VII / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.I.Gadoeva; mas’ul muharrir: Z.I.Rasulov; Buxoro. "Durdon" nashriyoti, 2023 yil. 252 bet.

KBK 81.2-3

To‘plamda Respublikamiz olimlari, ilmiy tadqiqotchilarining filologik mavzular doirasidagi, jumladan, muayyan til doirasidagi lingvistik qarashlari; qiyosiy–tipologik izlanishlari; tillarni o‘qitish nazariyasi va millat, milliy madaniyatning amaliy globallashuvi davrida tildan foydalanish muammolari, shuningdek, tillarni o‘qitish usuliyoti; adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik istiqbollari borasidagi fikr-mulohazalari o‘z ifodasini topgan.

To‘plam filologik yo‘nalishdagi ilmiy izlanuvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalarga mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati:

***Xamidov O.X., (BuxDU professori), Rasulov T.X. (BuxDU professori),
Haydarov A. (BuxDU professori), Gadoeva M.I. (BuxDU f.f.d. (DSc),***

***Mas’ul muharrir: Rasulov Z.I. (BuxDU f.f.d. (DSc),
Mas’ul kotib: Djumaeva N.Dj. (BuxDU f.f.f.d. (PhD))***

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent M.I.Gadoeva**

Taqrizchilar:

Davlatova M.X., Buxoro davlat tibbiyot instituti ingliz tili kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Qobilova N.S., BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligi, mazmuni, saviyasi va savodxonligi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

BuxDU Ilmiy texnik kengashining 2023 yil 23 fevraldagi 3-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9329-9-9

Axmedova Sarvinoz Hikmatovna

Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi

**INGLIZ VA O`ZBEK ERTAKLARIDA KO`MAKCHI
OBRAZLAR**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o`zbek ertaklarida ko`makchi obrazlar tizimi tahlil qilingan.

Kalit sozlar: folklor, ertak, obraz, bosh qahramon, ko`makchi qahramon

Har bir xalqning o`z ertaklari mavjud. Ularda xalqning qalbi, donishmandligi, fikr va intilishlari aks etadi. Ingliz va o`zbek ertaklari o`ziga xos epik qahramonlar, jumladan, ko`makchi qahramonlar tizimiga ega. Ular folklorda katta o`rin egallaydi. Har biri o`ziga xos g`ayrioddiy tasviri, ko`rinishi, badiiy vazifasi bilan farqlanib turadi. Ular keltirilgan asarlar yuksak badiiy ta`sirchanlik kasb etadi.

Ertaklarda bosh va ikkinchi darajali qahramonlar uchraydi. Shundan ikkinchi darajali qahramonlar “ko`makchi qahramon” yoki “epik ko`makchi” hisoblanadi. Ular bosh qahramonga yordam ko`rsatishiga binoan shunday nom bilan yuritiladi. Ko`makchi qahramonlar mifologik, hayvon (zoomorf), qush (ornitomorf), inson (antromorf) ko`rinishlarda uchraydi.

O`zbek folklorida keng uchraydigan chiltan, dev va pari kabilar obrazi serqatlam tasavvurlar tizimini o`zida mujassamlashtiradi. Ularning badiiy talqinlari o`zga olam mavjudligiga ishonch va uning vakillariga ixlos bilan bog`liq mifologik qarashlar tizimiga tutash holda taraqqiy topib borganligi kuzatiladi. Dev va pari kabi asotiriy personajlar epik asarlarning badiiy qurilishida bosh qahramonga yordam beruvchi homiy-personaj yo unga, aksincha, dushmanlik qiluvchi raqib-personaj sifatida harakat qiladi. Ular bosh qahramonga “g`aroyib predmet”larni hadya etuvchi epik homiy vazifasida ham keladi.

Ingliz folklori va adabiyotida tog` qushi Robin, Robin Gudfellov, Hobgoblin, Robgoblin obrazlari, o`zbek folklorida esa Semurg`, Anqo, Humo, laylak, kaptar, qaldirg`och, to`ti, g`oz kabilar g`ayrioddiy ko`makchi sifatida talqin etilgan.

“Qahramon”¹ nomli o‘zbek xalq ertagida Qahramon Semurg‘ bolalarini ajdahodan qutqargani uchun Semurg‘ ham unga ko‘mak bergani tasvirlangan.

Har ikkala xalq folklorida inson ko‘rinishidagi ko‘makchi obrazlar ko‘plab kuzatiladi. E.M.Meletinskiy yozganidek, kenja uka janubiy Evropa xalqlari ertaklarida sevimli qahramon hisoblanadi. U ko‘pincha sehrli ko‘makchilar yoki sehrli predmetlar yordamida o‘z maqsadiga etadi. Ba‘zi ertaklarda, to‘ng‘ich akalar kenjasini halok qilishga urinishadi, lekin kenja uka sehrli ko‘makchi yordamida qutilib qoladi.² Masalan, “Ko‘k soqol” nomli ingliz xalq ertagida ikki aka ukasini g‘orga tushirib yuboradi va qaytib chiqarmaydi. G‘ordan chiqqan qizga esa kim uylanishi ustida soatlab bahslashishadi. Bu orada kenja uka sevgan qizi bergan sehrli uzuk yordamida o‘z uyida paydo bo‘lib qoladi va qiz bilan baxtli hayot kechiradi.

Ertraklarda hayvonlar ham ko‘makchi obraz sifatida keladi. Ingliz xalq ertaklarida mushuk obrazi yetakchi o‘rin tutuvchi zoonimik timsollardan biridir. U, asosan, ko‘makchi obrazida keladi. Angliya va Shotlandiya ertaklarida mushuk butunlay salbiy obrazda gavdalantirilishi kuzatilmaydi.

Pari obrazi ingliz adabiyotida salbiy va ijobiy obraz qiyofasida tasvir etilgani kuzatiladi. Parining o‘ziga xos muhim xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u doimo yordamga tayyor, jonkuyar, biroq o‘yinqaroq, ba‘zan sho‘x, hatto qo‘rqituvchi va dahshatga soluvchi, insonlardan ko‘ra qobiliyatli, ya‘ni magik qudratga ega obrazdir.

O‘zbek ertaklarida parilar vafodor ayol, do‘st, maslahatgo‘y, aqlu farosatda, jasoratda va obro‘da ko‘pincha erkaklardan ham qolishmaydigan, hatto o‘z yori bilan birga janglarga kirib qahramonlik ko‘rsata oladigan obraz sifatida tasvirlangan.

Epik ko‘makchilar jonli va jonsiz ko‘makchi bo‘lishiga qarab ikkiga bo‘linadi:

1. Jonli ko‘makchilar: sehrgar kampir, sehrgar chol, ot, maymun, sher, baliq, qushlar singari va hokazo.

2. Jonsiz ko‘makchilar: pichoq, doira, suv ruhlari, arfa, nay, uzuk, pichoq va boshqalar. Masalan, “Binnori”³ nomli ingliz ertagida marhum qizning suyaklaridan yasalgan **arfa** qo‘shiq kuylab, opasi orqali o‘zining

¹ Ўзбек халқ эртаклари. I II III- том. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 23.

² Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки. – М.: Академия исследования культуры, 2005. – С. 115.

³ Joseph Jacobs. English Fairy Tales and More English Fairy Tales. – Oxford, England, 1911. – P. 43.

suvga cho‘ktirib o‘ldirilganini oshkor qiladi. “Ko‘k soqol”¹ ertagida esa Jekning sevgan qizi unga **istak uzugini** sovg‘a qiladi. Shu uzuk ko‘magida Jek uyiga, sevgan yorining huzuriga keladi. Buning uchun u qo‘liga taqib olgan tilsim uzukni barmog‘ida aylantirib, istagini aytsa, kifoya edi. “Baliq va uzuk”² ertagida baliq ichidan topilgan uzuk bosh qahramonning hayotini saqlab qoladi. Ushbu g‘aroyib uzuk orqali inson taqdirini o‘zgartirib bo‘lmasligi, taqdirga qarshi chiqolmaslik g‘oyasi ilgari surilgan.

Ingliz xalq ertaklarida musiqa asboblari ham ko‘makchi obraz bo‘lib keladi. Bunda bosh qahramonning ruhi musiqa asbobiga ko‘chadi va qo‘shiq kuylab, qotillik sirlarini fosh etadi. Bunga “Binnori” nomli ingliz xalq ertagi misol bo‘la oladi. O‘zbek xalq ertaklarida supra, qilich, kovush, tayoq va boshqa jonsiz predmatlar ko‘makchi vazifasida keladi.

Ikkala xalq ertaklarida ko‘makchi obrazlar kuzatilib, ular talqinida o‘xshashliklar ko‘p kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek xalq ertaklari. I II III- tom. – T.: SHarq, 2007. – B. 23.
2. Meletinskiy E.M. Geroy volshebnoy skazki. – M.: Akademiya issledovaniy kultury, 2005. – S. 115.
3. Joseph Jacobs. English Fairy Tales and More English Fairy Tales. – Oxford, England, 1911. – P. 120.

Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

A.B. Kobilova

BuxDU, 1-bosqich magistranti

Gulnoza Bo‘riyeva

INGLIZ DISKURSIDA PERIFRZALAR STILISTIK VOSITA SIFATIDA

Bugungi zamonaviy lingvistkaning shakllanishida perifrazalar muhim o‘rin tutadi. Perifraza an’anaviy ravishda “borliqdagi narsa va voqealarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri atamasdan, ularni bilvosita, ya‘ni turli xil so‘z yoki tasviriy ifodalar bilan ifodalash” deya talqin qilinadi, unda tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaning ma‘lum bir kontekst yoki vaziyat uchun muhim bo‘lgan sifati, tomoni birinchi o‘ringa qo‘yiladi [4, 65]. Masalan: *blue planet (Earth), black gold (oil), second bread*

¹ Joseph Jacobs. English Fairy Tales and More English Fairy Tales. – Oxford, England, 1911. – P. 120.

² Joseph Jacobs. English Fairy Tales and More English Fairy Tales. – Oxford, England, 1911. – P. 137.

МУНДАРИЖА

Rasulov Zubaydullo Izomovich, Lisoniy tejamkorlikning axborot ifodasidagi ortiqchalikka munosabati	3
Gadoeva Mavluda Ibragimovna, Yodgorova Laylo Baxtiyorovna. Somatizmlarning leksik-semantik tadqiqi	5
Вахидова Фотима Саидовна. Зиёрат туризмга оид терминлар лексик-семантик хусусиятлари	9
D.I.Xodjayeva, Kosimova Shakhnoza Sharof kizi. Transposition and its influence on the processes of derivation in modern english	13
Rakhmatova Mekhriniso, Rakhmonova Jasmina. American prose: analysis of contemporary american literature.....	15
Муҳайё Давлатова. Typology of expressive emotional relations in linguistics	17
Tursunov Mirzo Mahmudovich, Jalilov Bahodir Hamzayevich. Ingliz va o‘zbek tillari publisistik matnlarida yangi leksik birliklarining paydo bo‘lishi	20
Haydarov Anvar Askarovich, Sattorova Shahlo Shavkatovna. Modallik universal kategoriya sifatida.....	24
Qodirova Aziza Xayrilloevna. Til va nutq semantikasining sinxron tarjimaga oid muammolari va tarjima yo‘llari.....	28
Razoqova Kumush Sadriddinovna. Ingliz tilini o‘qitishda madaniy ongni rivojlantirish.....	31
Ro‘ziyeva N. Urg‘ular bilan bog‘liq konnotativ ma‘nolar.....	34
M.M.Raxmatova, M.Raximova. A review of krashen’s monitor model hypothesis	36
Qobilova N.S. N.Barotova. Nutqning odob-axloq buzilishi lingvokologik muammo sifatida.....	43
Qobilova N.S., Ollomurodov Arjun. Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida konseptual metafora va tarjima masalalari.....	46
A.B. Kobilova, Maxtob Axmedova. Ingliz va o‘zbek tilarida perifrazalar siyosiy xoslanishining lingvopragmatik tahlili.....	48
A.B. Kobilova, Dilrabo Ro‘ziyeva. Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida reklama tili va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	50
Axmedova Sarvinoz Hikmatovna. Ingliz va o‘zbek ertaklarida ko‘makchi obrazlar	52
A.B. Kobilova, Gulnoza Bo‘riyeva. Ingliz diskursida perifrazalar stilistik vosita sifatida	54
M.M.Raxmatova, Aziza Burxonjonova. How communicative competence is taught in secondary schools of Bukhara	57